

KASBIY TA'LIM TIZIMIDA IJTIMOIIY-HUQUQIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

Zulxaydarova Feruza Umarali Qizi

TIQXMMI MTU Tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda kasbiy ta'lim tizimida o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy kompetentligini rivojlantirish masalalari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu jarayonga ta'sir etuvchi pedagogik omillar, kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati hamda o'quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirishning muhim jihatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: kasbiy ta'lim, ijtimoiy-huquqiy kompetentlik, pedagogik omillar, huquqiy madaniyat, kompetensiyaviy yondashuv, fuqarolik mas'uliyati.

Hozirgi globallashuv jarayonida ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning kasbiy bilimlari bilan bir qatorda ijtimoiy va huquqiy kompetentligini ham shakllantirishdan iboratdir.

Ayniqsa, kasbiy ta'lim tizimida tahsil olayotgan o'quvchilarning jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi, huquqiy normalarni anglab yetishi va ularga amal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli kasbiy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy kompetentligini rivojlantirish pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda[1].

Kompetentlik qo'yilgan muammolarni hal etishga qaratilgan insonning ichki (bilim, ko'nikma, malaka, psixologik xususiyatlar) va tashqi imkoniyatlarini safarbar qila olish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

Kompetentligini rivojlantirishning muhimligini ko'rsatadi. Kasbiy ta'lim o'quvchilarga nafaqat bilim va ko'nikmalarni berishi, balki ularning muammolarni hal etish, o'z resurslarini safarbar qilish va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatlarini ham rivojlantirishi kerak.

Pedagogik adabiyotlarda kompetentlik tushunchasi shaxsning muayyan faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hamda shaxsiy sifatlar majmui sifatida talqin etiladi[2].

Ijtimoiy-huquqiy kompetentlik esa shaxsning jamiyatdagi huquqiy munosabatlarni anglay olishi, huquqiy normalarni bilishi va ularga amal qilishi, kasbiy ta'lim tizimida kompetentlikni rivojlantirishning muhimligini ko'rsatadi. Kasbiy ta'lim o'quvchilarga nafaqat bilim va ko'nikmalarni berishi, balki ularning kompetentligini ham rivojlantirishi kerak.

Bu esa o'quvchilarning kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishga, mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga va jamiyatga foyda keltirishiga yordam beradi.

O'zbekistonda o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi rivojlanishining ijtimoiy-pedagogik hamda nazariy-metodologik asoslari H.F.Rashidov tomonidan keng miqyosda tadqiq qilingan.

Ushbu tadqiqotlarda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining rivojlanish jarayonidagi muhim ijtimoiy-pedagogik omillar, ta'lim tizimini takomillashtirish yo'nalishlari va metodologik yondashuvlar ilmiy asosda yoritilgan.

Kasbiy ta'lim tizimida ijtimoiy-huquqiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoniga bir qator pedagogik omillar ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lashga xizmat qiladi.

Bunday yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda huquqiy madaniyatini shakllantirishga imkon yaratadi[3].

Shuningdek, interfaol ta'lim metodlari – munozara, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, keys-stadi usuli va loyiha faoliyatidan foydalanish o'quvchilarning huquqiy bilimlarini mustahkamlashda samarali vosita hisoblanadi.

Mazkur metodlar o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy jarayonlarni tahlil qilish, o'z fikrini asoslash hamda muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi[4].

Bundan tashqari, o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida o'qituvchining kasbiy kompetentligi, ta'lim muhitining samarali tashkil etilishi hamda tarbiyaviy ishlarning tizimli ravishda olib borilishi muhim pedagogik omillar hisoblanadi. Chunki aynan shu omillar o'quvchilarning huquqiy ongini rivojlantirish va ularning fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchining kasbiy faoliyati — bu doimiy amalga oshiriladigan faoliyat turi bo'lib, uning o'ziga xosligi shundaki, u ta'lim oluvchilarga ularning yoshi va individual xususiyatlarini, ehtiyojlari, qiziqishlari, intilishlari va ma'naviy olamini inobatga olgan holda psixologik-pedagogik ta'sir o'tkazish va shaxsning ta'lim va rivojlanish jarayonini boshqarishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy kompetentligini rivojlantirish ularning keyingi kasbiy faoliyati uchun qulay sharoit yaratadi, atrof-muhit bilan samarali o'zaro ta'sirga kirishish imkonini beradi, shuningdek, shaxsiy o'zini anglash va o'zini namoyon qilish imkoniyatlarini ochadi.

Kasbiy ta'lim tizimida o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik jarayonni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etishni, innovatsion metodlardan foydalanishni hamda o'quvchilarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli faoliyatni talab etadi.

Bu esa yoshlarning jamiyatda faol, mas'uliyatli va huquqiy madaniyatga ega shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Muslimov N.A. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2008.

